

O'ZBEKISTON VA RIVOJLANGAN XORIJIY MAMLAKATLARDA PEDAGOG-O'QITUVCHILARNING KASBIY MALAKASINI OSHIRISHNING QIYOSIY TAHLILI

Abdusabirov Jamshid Azizjon o'g'li

*A. Avloniy nomidagi pedagoglarni kasbiy rivojlanirish va yangi metodikalarga
o'rnatish milliy-tadqiqot instituti magistranti*

Annotatsiya: Hozirgi rivojlanib borayotgan bir zamonda har bir shaxs o'zi faoliyat olib borayotgan sohasida yangidan-yangi metodikalar va ko'nikmalarini egallagan holda kasbiy rivojlanishida yuqori pog'onaga ko'tarilishga intilib bormoqda. O'qituvchi-pedagoglarning o'z kasbiy malakasini muntazam ravishda oshirib borishi ta'lim tizimi rivojining asosiy elementi hisoblanadi. Yurtimizda joriy etilgan malaka oshirish tizimi hamda xorijiy davlatlarda joriy etilgan malaka oshirish tizimlari tajribalaridan foydalangan holda ushbu jarayonni yanada zamonaviylashtirish va yuqori samaradorlikka erishish ta'lim tizimining asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: malaka oshirish, pedagoglar, ta'lim, kasbiy rivojlanish

Abstract. In today's developing era, every person strives to rise to a higher level in his professional development, acquiring new methods and skills in the field of his activity. The main element of the development of the educational system is the regular improvement of the professional qualifications of teachers. One of the main goals of the education system is to further modernize this process and achieve higher efficiency using the experience of the system of regular improvement of the professional qualification introduced in our country and systems introduced in foreign countries.

Key words: advanced training, teachers, education, professional development

Аннотация. В современную развивающуюся эпоху каждый человек стремится подняться на более высокий уровень своего профессионального развития, приобретая новые методы и навыки в сфере своей деятельности. Основным

элементом развития системы образования является регулярное повышение профессиональной квалификации учителей. Одной из основных целей системы образования является дальнейшая модернизация этого процесса и достижение более высокой эффективности, используя опыт системы повышение профессиональной квалификации, внедренной в нашей стране, а также, внедренных в зарубежных странах.

Ключевые слова: повышение квалификации, педагоги, образование, профессиональное развитие

Yurtimizda ta'lim tizimiga doimo katta e'tibor qaratilgan. O'qituvchi va pedagoglarning malakasini doimo ravishda oshirib borish va ularni o'z kasbida har tomonlama yetuk bo'lishi uchun barcha shart-sharotilarni yaratish davlatning burchi hisoblanadi. Ta'lim tizimini rivojlantirish uchun avvalambor, uning asosi bo'lgan pedagoglarning malakasini doimiy ravishda oshirib borishga e'tibor qaratishimiz lozim.

Malaka oshirish jarayoni har daqiqada rivojlanib borayotgan bir zamonda pedagoglarning mavjud bilimlarini yanada chuqurlashtirishga, hamda dunyodagi pedagogika va boshqa sohalarda yuz berayotgan yangiliklardan xabardor qilishga, pedagoglarning bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Malaka oshirish uzlusiz ta'lim turlaridan biri hisoblanadi. Malaka talablari — kasbiy rivojlanish kursi (o'quv moduli) bitiruvchisining umumiy bilim va kasbiy tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar hisoblanadi.

Zamonaviy o'qituvchining ilm-fan, texnika va texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo'lishi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 17.01.2022 yildagi 25-sonli qaroriga muvofiq "Xalq ta'limi xodimlarini uzlusiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" nizomi qabul qilingan. Unga ko'ra xodimlarning malakasini oshirish xalq ta'limi hududiy boshqaruv organlari yoki bevosita Vazirlikning buyurtmalariga binoan ixtisoslashtirilgan ta'lim tashkilotlari tomonidan

amalga oshiriladi. Malaka oshirish ixtisoslashtirilgan ta’lim tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan tabaqalashtirilgan ishchi o‘quv dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi. Xodimlarning har yili belgilangan davomiylikdagi malaka oshirish dasturlarini o‘zlashtirishi va belgilangan hajmdagi kredit ballarini yig‘ishlari majburiy hisoblanadi. Xodimlar malakasini oshirishning har yilgi umumiyl davomiyligi xalq ta’limi tizimi rahbar va mutaxassis xodimlari uchun kamida 30 soat, pedagog xodimlar uchun kamida 36 soat etib belgilanadi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 23.09.2020 yildagi O‘RQ-637-sonli “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonunning ikkinchi bob 13-moddasida kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish haqida alohida ta’kidlab o‘tilgan. Unga ko‘ra, kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo‘lgan yo‘nalishlar bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo‘srimcha kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarining zarur hajmi egallanishini ta’minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko‘nikmalarining chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta’minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Masalan, Yaponiya maktablarida mavjud bo‘lgan malaka oshirishning majburiy tizimiga qaramay, bu yerda o‘qituvchilarning o‘z-o‘zini tarbiyalashi rag‘batlantiriladi. Kechki sinflarga qatnaydigan yoki o‘z tashabbusi bilan sirtqi bo‘limda o‘qiyotganlarga oylik ish haqining 1/10 qismiga teng miqdorda nafaqa to‘lanadi. Darhaqiqat, bunday mukofot bilan jamiyat manfaati uchun mehnat alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo yapon o‘qituvchisining ish kuni ba’zan 13-14 soatga yetadi. Malaka oshirish jarayoni shunday tashkil etilishi lozimki, unda har bir pedagog katta ishtiyoq bilan qatnashishi, o‘z malakasini oshirish uchun hech qanday to‘sirlarga uchramasligi lozim. Bu maqsadga erishish uchun malaka oshirish tizimini yanada afzalliklarga boy tarzda takomillashtirishimiz lozim. Rivojlangan davlatlarda bu jarayon qanday amalga oshirilishini o‘rganib chiqib, ular bilan tajriba almashgan holda, afzallik jihatlarini o‘zimizga kiritishimiz va ushbu malaka oshirish jarayonini yanada sodda va samarali ko‘rinishga keltirishimiz lozim. Bu esa o‘z navbatida pedagoglarda kasbiy malaka oshirish jarayonining aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan

tizimga aylanishi uchun zamin yaratib beradi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda pedagoglarning malakasini oshirish tizmini yanada rivojlantirish, rivojlangan xorijiy davlatlarning tajribasidan unumli foydalangan holda, ushbu tizimni yanada rivojlantirish orqali ta’lim sohasida oldinga katta qadam tashlash mumkin bo’ladi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risi”dagi Qonuni 13-modda
2. “Xalq ta’limi xodimlarini uzlucksiz kasbiy rivojlantirish tizimini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 6-bob 2-§
3. J. Hasanboyev, X. A. To‘raqulov, I. Sh. Alqarov, N. O‘. Usmanov “Pedagogika” “Noshir” Toshkent 2011